

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

\_\_\_\_\_ dots F.G.Sharipov

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2020 yil

№ \_\_\_\_\_

# FALSAFA

fanidan

**2020-2021 o‘quv yili uchun  
ISHCHI O‘QUV DASTURI  
(SYLLABUS)**

**Bilim sohasi:** 100000 - Gumanitar  
**Ta‘lim sohasi:** 110000 - Pedagogika  
**Ta‘lim yo‘nalishi:** barcha ta‘lim yo‘nalishlari uchun  
**Kafedra:** “Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi”

O‘qish davri.....	1 semestr
Fan kodi.....	FalM1004
Fan hajmi.....	4 kredit
Fanning umumiy soatlari,shu jumladan .....	120
- auditoriya soatlari,shu jumladan.....	60
- ma‘ruzalar.....	30
- amaliy mashg‘ulotlar.....	30
- mustaqil ta‘lim,shujumladan .....	60
- O‘RTMI.....	30
- TMI.....	30
Nazorat shakli.....	ON,YaN
O‘qitish tili .....	O‘zbek

Guliston – 2020

“Falsafa” fanining ushbu o‘quv dasturi Toshkent davlat universitetida ishlab chiqilgan Fan dasturi asosida tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 29 avgustdagi buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan. BD-5520100-2.01 raqami bilan ro‘yxatga olingan bakalavr yo‘nalishi uchun namunaviy dastur va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

Fan dasturi Guliston davlat universiteti Kengashining 2020 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchi:** A.Asatulloev, «MG‘, MA va HT» kafedrasida o‘qituvchisi \_\_\_\_\_  
(imzo)

**Taqrizchi:** B.Gofurov, «MG‘, MA va HT» kafedrasida kat. o‘qit. \_\_\_\_\_  
(imzo)

GulDU Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti dekani:  
2020 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dots. B.To‘ychiboev  
GulDU “MG‘, MA va HT” kafedrasida mudiri:  
2020 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ Sh.Kenjaev  
GulDU O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i:  
2020 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ I. Xudoyberdiyev

#### ***Fan o‘qituvchilari haqida ma’lumot:***

**Bahrom Gofurov** – lektor, «Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi» kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Abrorxon Asatulloev** – tyutor, «Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi» kafedrasida o‘qituvchisi

**Ofis:** GulDU Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti, «MG‘, MA va HT» kafedrasida  
**Manzil:** Guliston shahar, 4-mavze  
**Telefon:** +99890 982 30 92  
**Email:** [abshah.uz1992@gmail.com](mailto:abshah.uz1992@gmail.com)  
**Sayt:** <http://hemins.guldu.uz>

#### ***Intizomiy talablar:***

Talabning intizomi universitetdagi “Talabalar uchun ichki tartib-qoidalar”ga to‘liq javob berishi shart.

<b>Fan/modul kodi</b>	<b>O‘quv yili</b>	<b>Semestr</b>	<b>ECTS – Kreditlar</b>
-----------------------	-------------------	----------------	-------------------------

FalM1004	2020-2021	1	4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/Rus		<b>Haftalik dars soatlari</b> 4	
<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
<b>Falsafa</b>	<b>60</b>	<b>60</b>	<b>120</b>	

### 1.Kirish

**Fanning ahamiyati.** Falsafa fanining dolzarbligi bugungi globalashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolarni hal etish, xalqimiz ma'naviy me'rosini asrash va yanada yuksaltirish, yoshlarning falsafiy tafakkurini shakllantirish, ongini turli zararli g'oyalardan saqlash, ularni falsafiy bilimlar bilan qurollantirish zarurligi bilan belgilanadi.

Ushbu fan barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'tilishi belgilangan bo'lib, o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, unga munosabat bildirishni shakllantiradi hamda analitik, sintetik, kreativ tafakkurni hosil qiladi. Shuning uchun falsafa fani yosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Fanning qisqa mazmuni (summary).** "Falsafa" fani barcha zamonlarda va mamlakatlarda hamma universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlarida o'rganish uchun majburiy sanalgan fundamental fanlardan biri bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Mazkur fanni mohiyatini o'rganishimiz jarayonida, uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashimiz va falsafa inson o'z-o'zini va o'zini qurshagan dunyoni anglab yetishida qanday rol o'ynashini tushuna boshlaymiz. Zero, birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi".<sup>1</sup> "Bir so'z bilan aytganda, yoshlarimizni falsafiy tafakkur bilan qurollantirish" - davr talabi. Nega deganda, bugungi zamonda har qanday raqib va muxolif bilan bahsga kirishish uchun uning qarashlari va g'oyasi, falsafasini ko'proq bilishimiz, kerak bo'lsa, uning o'zidan ham puxtarok egallashimiz lozim"<sup>2</sup>.

**Fanning maqsadi va vazifalari.** Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash ko'nikma va malakasini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi:

- falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalarni o'rganish orqali tizimli, kreativ fikrlash, hayotda o'z o'rnini topish;
- jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashish, voqealarga shaxsiy, ijodiy tanqidiy baho berish;
- o'z-o'zini ma'naviy axloqiy, diniy tarbiyalash;
- jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash.

Fanning vazifasiga talabalarni yuqorida ko'rsatilgan ijtimoiy-falsafiy faoliyat bo'yicha amaliy *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. -B.83

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yoshlarga ishonch bildirish, ularning tashabbus va salohiyatini ro'yobga chiqarish -bugungikunning ustuvor vazifasidir.// Inson, uning huquq va erkliklari - oliy qadriyat. -T.: O'zbekiston, 2006.B.118

**Ta'lim natijalari (Learning Outcomes)**

№	Ta'lim natijalari	O'qitish usullari	Baholash usullari
1.	Falsafada tadqiqot metodlari va ular bilan bog'liq malakalar bilan tanishtirish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat. Zamonaviy jamiyatlarda falsafaning o'rni va roli. Rivojlanish istiqbollari ochib berish <b>tasavvurga ega bo'lishi;</b> Tarixiy-qiyosiy metod asosida talabalarga chet el va diyorimizda yillar davomida shakllangan falsafani o'ziga xos tomonlari haqida tushuncha shakllantirish.	Ma'ruza, grafik organayzerlar, TMI (Research, FAQ, Test)	Test
2.	Jamiyatda falsafiy fikrlash, ishlash, kasbga oid mustaqil va tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va xulosa chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladi	Amaliy mashg'ulot, Activity	Darslardagi faolligi
3.	Fan topshiriqlarini vaqtda bajarish, jamlash va taqdim etish ko'nikmalariga ega bo'ladi	Q/A, Chart, Link, Review, SWOT, Google Apps, Interview	Portfli
4.	Berilgan mavzu bo'yicha ma'lumotlarni izlab topish, taqdimot tayyorlash va uni o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'ladi.	ma'ruza, amaliy, TMI	Taqdimot

**1. Fan modullari**

**Fan soatlarining mashg'ulot turlari bo'yicha taqsimoti**

№	Modullar	Mashg'ulot turlari bo'yicha soatlar				
		Jami	Ma'ruza	Seminar	O'RTM I	TMI
1	Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo'lg'usi pedagoglarda o'qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati.	8	2	2	2	2
2	Falsafani taraqqiyot bosqichlari.	8	2	2	2	2
3	Ontologiya, gnotseologiya va ong falsafasi.	8	2	2	2	2
4	Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari.	8	2	2	2	2
5	Jamiyat falsafasi. Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari.	8	2	2	2	2
6	Pedagogik amaliyotda mantiqiy vikrlashning ahamiyati.	8	2	2	2	2
7	Etika fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy axloq.	8	2	2	2	2
8	Pedagog faoliyatida estetika.	8	2	2	2	2
	1-oraliq nazorat (portfolio)					

9	Korrupsiya va uning asosiy ko‘rinishlari.	8	2	2	2	2
10	Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo‘nalishlari.	8	2	2	2	2
11	Dinshunoslik faniga kirish. Dinning mohiyati, tuzilishi, funktsiyalari.	8	2	2	2	2
12	Urug‘-qabila va milliy dinlar.	8	2	2	2	2
13	Jahon dinlari: buddizm va xristianlik va ulardagi ta’limiy-tarbiyaviy qarashlar.	8	2	2	2	2
14	Islom dini va ta’limoti.	8	2	2	2	2
15	O‘zbekistonda vijdon erkinligi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O‘zbekiston tajribasi.	8	2	2	2	2
	2-oraliq nazorat (portfolio)					
	Yakuniy nazorat (attestatsiya haftasida o‘tkaziladi)					
	<b>Jami</b>	<b>120</b>	<b>30</b>	<b>30</b>	<b>30</b>	<b>30</b>

### **O‘tiladigan ma’ruza mavzulari, ko‘riladigan masalalar va ajratilgan vaqt**

#### **1 – mavzu. Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo‘lg‘usi pedagoglarda o‘qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati.**

**(2 soat)**

Falsafa jahon xalqlari madaniyatining tarkibiy qismi, umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatiga ega, voqealarning eng umumiy aloqadorligi va taraqqiyot qonunlarini o‘rganuvchi ta’limot. «Falsafa» atamasining lug‘aviy ma’nosi Falsafa fani predmetining jamiyat, fan va texnika taraqqiyoti natijasida doimo o‘zgarib turishi. Falsafaning bahs mavzulari: Borliq, dunyoni falsafiy anglash, inson, jamiyat va uning istiqboli.

Dunyoqarash tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mifologik, diniy, falsafiy dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyatlari

Falsafaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Falsafaning jamiyat hayotidagi roli va uning asosiy funksiyalari yosh avlodni ma’naviy komillik, mustaqillikka sodiqlik ruhida tarbiyalashda falsafa fanining ahamiyati.

#### **2 – mavzu. Falsafani taraqqiyot bosqichlari. (2 soat)**

Sharq - jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biri. Qadimiy Sharq, Misr va Bobildagi falsafiy fikrlar.

Antik dunyo falsafasi. Milet va Eley maktablari. Geraklit, Pifagor va pifagorchilar.

Sofistlar falsafasi. Suqrot va Aflotun falsafasi. Platonning g‘oyalar dunyosi va g‘oyalar dunyosi to‘g‘risidagi ta’limoti. Yunonistonlik atomistlar: Levkip, Demokrit va boshqalar. Aristotelning hayoti, faoliyati va asarlari. Qadimgi Rimda falsafiy fikrlar.

Qadimgi Sharq va Antik dunyoda falsafiy fikrlarni o‘rganishdagi zarurat, uning jahon madaniyati va fani uchun ahamiyati.

Markaziy Osiyodagi falsafiy fikrlar uning jahon madaniyatida tutgan o‘rni.

XIV asr oxiridan XX asr boshigacha O‘zbekistondagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur. Ulug‘bekning tabiiy-ilmiy qarashlari. Alisher Navoiy, Bobur, Mirza Bedil va Boborahim Mashrabning ijtimoiy falsafiy qarashlari.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida falsafiy fikrlar. Jadidlik — milliy g‘oyalar uchun kurash falsafasi.

O'rta asrlarda va yangi davr Ovrupadagi falsafiy fikrlar. Nominalizm va realizm g'oyalari. Uyg'onish davri falsafasi. J.Bruno, N.Kopernik, F.Bekon, T.Gobbs qarashlari. XVII asr Ovrupo falsafasidagi ratsionalizm. XVIII asr ma'rifatchiligi.

Nemis klassik falsafasi. Kant, Gegel falsafasi. Gegendan keyingi falsafiy oqim va g'oyaviy jarayonlar. Marksizm: uni qadrlanish va qadrsizlanish sabablari.

Rus falsafasi. (Plexanov G.V., Berdyaev N.A., Lenin V.I.)

XX asrda shakllangan falsafiy ta'limotlar: ekzistensializm, neopozitivizm, neotomizm.

### **3 – mavzu. Ontologiya, gnotseologiya va ong falsafasi (2 soat)**

Borliq tushunchasining mohiyati va ma'nosi. Ontologiya — borliq falsafasi. Borliqning asosiy turlari. Moddiy predmetlar, jarayonlar borlig'i. Materiya kategoriyasi. Uning xususiyatlari va namoyon bo'lish shakllari haqida zamonaviy qarashlar. Harakat tushunchasi. Harakatning asosiy shakllari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Harakatning abadiyligi, uzluksizligi va tinchlikning nisbiyligi tamoyili. Fazo va vaqt-materiya mavjudligini ob'ektiv shakllari. Fazo bilan vaqtning umumiyligi va farqi. ularning birligi, abadiyligi, cheksizligi, uzluksizligi.

Inson olamning tarkibiy qismi. «Odam», «inson», «individ» va «shaxs» tushunchalari. Antropologiya - inson to'g'risidagi fan.

Insonning tabiati va mohiyati. Inson mavjudligida jism va Ruh (ma'naviyat) uyg'unligi. Inson borlig'i: biologik zot, ijtimoiy vujud. Odam evolyutsiyasi haqida hozirgi zamon fani xulosalari. Odamning insonga aylanib borish jarayoni. Insonning ma'naviy ruhiy olami. Falsafada insonni yashashi va o'limi masalasi. Suitsid, evtanaziya muammolari.

Bilish - voqelikning in'ikosi. Bilish muammosining falsafada qo'yilishi va hal qilinishi. Bilishning ob'ekti va sub'ekti. Bilish ziddiyatli, murakkab, dialektik jarayon. Bilishning asosiy bosqichlari. Hissiy bilish va uning shakllari: sezgi idrok, tasavvur. Mantiqiy bilish va uning shakllari: Tushuncha, hukm, xulosa. Hissiy va mantiqiy bilishning birligi. Sensualizm va ratsionalizm. Bilish jarayonida ijod, intuitsiyaning roli va hozirgi zamon falsafasida bularning ifodalanishi.

Haqiqat tushunchasi. Haqiqatning ob'ektivligi. Nisbiy va mutloq haqiqat, ularning dialektikasi. Haqiqatni bilishda amaliyotning roli.

Ilmiy bilish, uning kundalik bilishdan farqi va o'ziga xos xususiyatlari. Fanda «Empirik» va «Nazariy» bilish, ularning xususiyatlari.

Ong - yuksak darajada shakllangan materiya ko'rinishi - odamzod miyasining mahsuli. Ong bilan ruhiyat o'rtasidagi bog'liqlik. Inson ongining tabiiy-ijtimoiy jihatlari. Ong va in'ikos. In'ikosning mohiyati, asosiy shakllari. Hissiyot va tasavvur. Iroda va tafakkur. O'z- o'zini anglash, tuyg'ular, onglilik va ongsizlik muammolari. Ong, til va mehnat, ularning bog'liqligi. Ijtimoiy va individual ong. Ijtimoiy ong, uning darajalari va asosiy shakllari. O'z-o'zini va milliy o'zlikni anglash.

### **4 – mavzu. Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari. (2 soat)**

Metod va metodologiya tushunchasi. Xususiy fan metodlari va falsafiy metodlarning o'xshash va farq qiladigan jihatlari. Ilmiy metodlar klassifikatsiyasi.

Falsafada qonun tushunchasi va uning mohiyati. Qonun va qonuniyat. Tabiat va jamiyat qonunlarining bir-biridan farqi. Falsafiy qonunlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Dialektikaning asosiy qonunlari: Miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro o'tish qonuni va uning mohiyati. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, bu qonunning mohiyati. Bu qonunning tabiatda, jamiyatda, ilmiy bilishda namoyon bo'lishi. Dialektik ziddiyatlar va ularning turlari. Ziddiyatlarni bartaraf etish yo'llarini bilishning

amaliy va ilmiy ahamiyati. Inkorni inkor qonuni, uning mohiyati. Inkor tushunchasi. Inkorni inkor dialektikasi. Vorislik eskini inkor va yangilikning shakllanish sifatida, yangilikda eskilik elementlarining saqlanishi va barham topishi muammolari.

Falsafiy kategoriyalar mohiyati va xususiyati. Falsafa kategoriyalarining xususiy fanlar tushunchalaridan farqi.

Olamdagi umumiy aloqadorlikni ifodalovchi kategoriyalar: ayrimlik, xususiylik va umumiylik, mohiyat va hodisa, qonuniyat. Narsa va hodisalar tuzilishini aks ettiruvchi kategoriyalar: shakl va mazmun; butun va qism, sistema, struktura va element. Narsa va hodisalar o'rtasidagi sababli bog'lanish (determinizm)ni anglashda imkon yaratuvchi kategoriyalar: sabab va oqibat: zaruriyat va tasodif; imkoniyat va voqelik.

### **5 – mavzu. Jamiyat falsafasi. Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari. (2 soat)**

Jamiyat tushunchasi. Jamiyatning mohiyati, kelib chiqishi va taraqqiyoti to'g'risidagi diniy va hozirgi sotsiologik qarashlar.

Jamiyatga ilmiy-falsafiy yondashishning asosiy tomonlari. Jamiyatning moddiy hayoti. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi. Kishilar birligining tarixiy shakllari. Oila, urug', qabila, elat, millat.

Jamiyat - doimiy ravishda taraqqiy etib turadigan jonli sotsial organizm. Jamiyat taraqqiyotida uzluksizlik va uzluksizlik. Jamiyat taraqqiyotining doimiy ravishda olg'a tomon ilgarilab borishi. Jamiyat taraqqiyotidagi turg'unlikning vaqtinchaligi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlar, ularning tarixiy ahamiyati. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida inson omilining ortib borishi.

Insoniyat istiqboli va global muammolar.

### **6 – mavzu. Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikrlashning ahamiyati. (2 soat)**

Tafakkur — mantiq ilmining o'rganish ob'ekti. Tafakkurning asosiy xususiyatlari. Tafakkurni o'rganishga turli xil yondashishlar.

Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari xakida tushuncha. Tafakkur shakli (mantiqiy shakl) tushunchasi. Fikrning aniq mazmuni va mantiqiy shakli, ularning nisbiy mustaqilligi va o'zaro aloqasi. Tafakkur qonuni (mantiq qonuni) tushunchasi. Tafakkur qonuni-fikrlar (fikrlash unsurlari) o'rtasidagi zaruriy aloqa. Tafakkur qonunlari to'g'ri fikr yuritishning muhim tamoyillari sifatida.

Mantiq — tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan. Mantiq ilmining asosiy masalalari va ularni tadqiq etish yo'nalishlari. Formal mantiqning predmeti va tuzilishi, uning dialektik mantiq va matematik mantiq bilan o'zaro munosabati. Formal mantiqning falsafiy bilimlar tizimida tutgan o'rni. Formal mantiqning hozirgi paytdagi vazifalari.

Mantiq fanining pedagogik amaliyotda fikrlash madaniyatini o'stirishdagi, shu jumladan, mustaqil, erkin fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdagi ahamiyati. Mantiq ilmining bilish jarayonida tushunish va tushuntirish, ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, milliy mafkurani rivojlantirishdagi ahamiyati.

### **7 – mavzu. Etika fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy axloq. (2 soat)**

“Etika” fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi. Axloqning paydo bo'lishi. Gedonizm va evdemonizm tushunchalarining axloqiy ahamiyati. Etika fanining fanlararo bog'liqligi: falsafa, estetika, dinshunoslik, huquqshunoslik, milliy g'oya, psixologiya, pedagogika, siyosatshunoslik, ekologiya. Axloqning paydo bo'lishi haqidagi diniy, empirik va genetik konsepsiyalar. O'zbekistan mustaqilligining etika fani rivojiga konstruktiv ta'siri. XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati. Pedagogik etika, uning jamiyat oldidagi burchi va mas'uliyati.

## **8 – mavzu. Pedagog faoliyatida estetika. (2 soat)**

Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri. Insoniyat tarixida estetik anglash, munosabat va faoliyatning talqini. Estetik bilish va estetik qadriyatlar mutanosibli. Estetik anglashning asosiy elementlari: estetik ehtiyoj, estetik munosabat, estetik tuyg'u, estetik did, estetik baho, estetik ideal, estetik qarashlar, estetik nazariyalar. Shaxs estetik ehtiyoji. "Estetika" kategoriyalarining falsafiy mazmuni va mohiyati. Falsafa tarixida estetika kategoriyalari haqidagi tasavvurlarning xilma-xilligi.

Pedagogik faoliyat estetik didni shakllantirishning muhim omili. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni insoniylashtirish va go'zallashtirishning estetik muammolari. Voqelikka estetik munosabatning milliy va umumbashariy ahamiyati. Estetik qadriyatlar-barqarorlikni ta'minlovchi omil. "Dunyoni go'zallik qutqaradi" shiorining global ahamiyati. Olamni estetik anglashda jamiyat axborotlashuvining roli.

Axborot estetikasining o'ziga xos xususiyatlari va uning ijtimoiy-siyosiy, badiiy-ijodiy, ma'naviy-axloqiy jarayonlar bilan bog'liqligi.

## **9 – mavzu. Korrupsiya va uning asosiy ko'rinishlari. (2 soat)**

Korrupsiya tushunchasining tasnifi. Korrupsiya va korrupsiyaviy huquqbuzarlikning mohiyati, kelib chiqishi va uning asosiy ko'rinishlari.

- O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi farmonni mazmun- mohiyatini singdirish;
- Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqish sabab va omillarini umumiyligiga ko'ra: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy omillarini tahlil etish orqali har bir omillarni bugungi kun ijtimoiy hayotdagi amaliy misollar yordamida ko'rib chiqish va ularni tub mohiyatini anglashga yordam berish;

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida PF-5618 son farmonni tushuntirish orqali talaba yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish.

## **10 – mavzu. Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari. (2 soat)**

Davlatimizda korrupsiyaga qarshi kurashda davlat hokimiyati organlari faoliyatini tahlil etib muayyan vazifalarni amalga oshirmoqda jumladan:

- Korrupsiyani oldini olish korrupsiya sabablarini aniqlash va bartaraf etish;
- Korrupsiyaga qarshi kurashning tashkiliy asoslarini tushuntirish;
- Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni tushuntirish orqali talaba yoshlar ongi va tafakkuriga singdirish, shuningdek, 2019 yil 27-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari PF-5729 son Farmoni bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va unda ilgari surilgan asosiy vazifalarni tahlil etishdan iboratdir.

## **11 – mavzu. Dinshunoslik faniga kirish. Dinning mohiyati, tuzilishi, funktsiyalari. (2 soat)**

Dinshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari bayon qilingan. Dinshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi. Dinshunoslik fanini o'rganishning jamiyat barqarorligini mustahkamlash, diniy bag'rikenglikni tarbiyalash, vijdon erkinligini ta'minlashdagi ahamiyati. Dinshunoslikda shakllangan mifologik,



tarixiy, sotsiologik, antropologik va boshqa maktablar. Din - ijtimoiy ong shakli, muayyan turmush va tafakkur tarzi, ma'naviy qadriyat sifatida, Dinning jamiyat va shaxs ma'naviyati yuksalishidagi, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati. Dinning strukturasi. Dinning ijtimoiy funksiyalari: dunyoqarashni shakllantirish, yosh avlodni tarbiyalash, tartibga solish (regulyatorlik), birlashtirish (integratorlik), tasalli berish (kompensatorlik), aloqa o'rnatish (kommunikativ) va h.k. Din va dinshunoslik atamalarining ta'rifi hamda dinshunoslik fanining vujudga kelishi va tadrijiy taraqqiyoti bayon etiladi.

### **12 – mavzu. Urug‘-qabila va milliy dinlar. (2 soat)**

Insoniyatning dastlabki madaniyat o'choqlari va ulardagi diniy tasavvurlarning xilma-xilligi. Ilk tabu (ta'qiq), totemizm, animizm, fetishizm, shomonlik, magiya (sehrgarlik). Qadimgi Misr, Babil va Assuriya dinlari. Antik davrda ko'pxudolik dinlari. Hinduiylik. Vedalar va upanishadlar - hinduiylikning muqaddas kitoblari. Braxmanlik ta'limotida kastalar. Konfutsiylik. Konfutsiylikda ijtimoiy-axloqiy masalalar. Daosizm - falsafiy ta'limot. Iudaizm - yahudiy milliy dini. Yahudiylik ta'limoti. Yapon milliy dini - sintoizm, uning asosiy aqidalari va marosimlari.

### **13 – mavzu. Jahon dinlari: buddizm va xristianlik va ulardagi ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar. (2 soat)**

Buddizmning vujudga kelishi, ta'limoti – to'rt oliy haqiqat, nirvana. Buddizm axloqiy ta'limoti - “pancha-shila”. Buddizmdagi oqimlar: maxayana, xinayana, lamaizm va h.k. O'zbekiston hududidagi buddizm yodgorliklari va ularning tadqiq etilishi. Xristianlik. Xristian ilohiyoti. Yakka xudoning uch qiyofasi: Ota-xudo, O'g'il-xudo, Muqaddas ruh. Xristianlikdagi asosiy oqimlar - ortodoks (pravoslavie), katolitsizm, protestantizm. Xristianlikning O'rta Osiyoga kirib kelishi.

### **14 – mavzu. Islom dini va ta'limoti. (2 soat)**

Islom dini shakllanishidagi tarixiy sharoit. Muhammad payg'ambar(a.s.) hayoti va faoliyati. Vahiyning nozil bo'la boshlashi. Madinaga hijrat. Makkaning fath etilishi. Xalifalik. Islomda mazhablarning paydo bo'lishi, ilk ixtiloflar. Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi. Qur'on - islom dinining muqaddas kitobi. Qur'ondagi ezgulik, tinchlik, birodarlik, mehr-muruvvat g'oyalari. Qur'ondagi axloqiy g'oyalarning umuminsoniy ahamiyati. Hadislar - Qur'ondan keyingi mo'tabar manba. Hadislarda ma'naviyat, axloq-odob, mehr-oqibat masalalari. Islom ta'limotida oila muqaddasligi. Er-xotinning bir-biriga nisbatan huquq va burchlari. Islomda ayollarga munosabat. Islom ilohiyoti, uning asosiy aqidalari. Islom falsafasi olam va odamning yaratilishi, inson hayotining mazmuni, ezgulik va yovuzlik kurashi to'g'risida Kalom falsafasi Imom Moturidiy ta'limoti. Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari. Abu Homid G'azzoliy, Ibn Rushd falsafiy ta'limotlari. Tasavvuf (sufizm) ta'limoti va tariqatlar. Farididdin Attor va Jaloliddin Rumi, Hakim Termiziy va Sufi Olloyor asarlarida tasavvuf g'oyalari. O'zbekiston hududida shakllangan mashhur tariqatlar. O'zbekiston allomalarining islom ta'limoti va dunyoviy fanlarni rivojlantirishdagi tarixiy xizmatlari. Tasavvuf ma'naviyati. Islomda huquq falsafasi. Burhoniddin Marg'ioniy va uning “Hidoya” asari - islom huquqi bo'yicha eng mo'tabar manba. O'zbekiston ulamolarining tafsir va hadis ilmiga qo'shgan hissalar haqidagi fikrlar bayon etiladi, ilmiy tahlil qilinadi.

### **15 – mavzu. O'zbekistonda vijdon erkinligi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston tajribasi. (2 soat)**

Vijdon erkinligi tushunchasi. Xalqaro me'yoriy xujjatlarda vijdon erkinligi. O'zbekistonda vijdon erkinligining asosiy qonun bilan kafolatlanishi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar. Missionerlik va prozelitizm

xavfining bartaraf etilishi. Diniylik va dunyoviylik muammosi, ularning uyg'unligini ta'minlash borasida O'zbekistonda amalga oshirilgan tadbirlar. Ma'rifiy islomni targ'ib etish - yoshlarni diniy mutaassiblik, aqidaparastlik va ekstremistik g'oyalardan muhofaza etishning oqilona yo'li. Diniy mutaassiblik (fanatizm), ekstremizm, aqidaparastlik (fundamentalizm), xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaksiyon mohiyati. Terrorizmning tinchlik va taraqqiyotga, millatlararo munosabatlar va diniy bag'rikenglikka tahdidi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash. Virtual olam tahdidlari. Internet muammosi. Kibermakon va din. Global tarmoqdagi g'oyaviy xurujlarga qarshi kurash. O'zbekiston Respublikasida ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari. O'zbekiston rahbariyatining bu boradagi tashabbuslari va ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi tahdidi haqida fikrlar bayon etiladi, munozaralar olib boriladi.

### **Seminar mashg'ulotlarining mavzulari, mazmuni va soati**

#### **Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Falsafa fani bo'yicha seminar mashg'ulotlarida ma'ruzada bayon qilingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, fan bo'yicha olingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, talabalarning ilmiy-tadqiqot olib borish va bilish qobiliyatlarini o'stirish, nazariy o'qitish jarayonida egallangan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Seminar mashg'ulotlari davomida o'qituvchi va talaba o'rtasida ikki tomonlama yaqin aloqa o'rnatiladi: jonli suhbat olib boriladi, o'zaro fikr almashish va turlicha qarashlarni ifoda etish jarayonida fanning xususiy masalalarini chuqur o'rganish maqsadini amalga oshiradi. Bunda zamonaviy pedagogik texnologiyaning interfaol usullari qo'l keladi.

#### **1-seminar. Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo'lg'usi pedagoglarda o'qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati**

**(2 soat)**

1. «Falsafa» atamasining mohiyati va mazmuni.
2. Falsafaning bahs mavzulari va asosiy muammolari.
3. Falsafiy g'oyalar, nazariyalarning asosiy yo'nalishlari va vazifalari.

#### **2-seminar. Falsafani taraqqiyot bosqichlari. (2 soat)**

1. Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi.
2. Islom dinining vujudga kelishi va falsafiy ta'limoti.
3. Sharq falsafasi va uyg'onish davri.
4. Temuriylar davri falsafiy fikr taraqqiyoti.
5. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy fikrlar.
6. Qadimgi Yunon-Rim falsafiy maktabi.
7. Ilk o'rta asr G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari.
8. Uyg'onish davri falsafaiy tafakkuri rivojlanishining asosiy xususiyatlari.
9. Yangi va eng yangi davr falsafasining ustuvor yo'nalishlari.

#### **3- seminar. Ontologiya, gnotseologiya va ong falsafasi (2 soat)**

1. Borliq va uning mavjudlik shakllari.
2. Borliq va yo'qlik, mavjudlik va reallik.
3. Harakat, fazo va vaqt, makon va zamon.
4. Borliq falsafasini o'rganishning ahamiyati.
5. Bilish va bilim — falsafiy tahlil mavzui.

6. Bilishning ob'ekti va sub'ekti. Inson bilishining asosiy bosqichlari.
7. Ilmiy bilishning mohiyati va usullari. Metod, nazariya va metodologiya.
8. Ong va ongsizlik masalasi.

**4- seminar. Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari. (2 soat)**

1. O'zgarish va taraqqiyot jarayonida takrorlanish tamoyili. Qonun tushunchasi, uning mohiyati va falsafiy talqini.
2. Voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyat dialektikasi. Uning tabiat va jamiyatdagi xususiyatlari.
3. Olamning mavjudligi — miqdor va sifat voqeligi tarzida. Taraqqiyotda tadrijiylik tamoyili.
4. O'zgarish va rivojlanish jarayonida o'z-o'zini inkor etish tamoyili. Vorislik va yangilanish.
5. Falsafaning asosiy kategoriyalari.

**5- seminar. Jamiyat falsafasi. Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari. (2 soat)**

1. Jamiyat tushunchasining mohiyati va mazmuni.
2. Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi turli nazariyalar.
3. Taraqqiyotning o'zbek modeli.
4. Insoniyat istiqbolini belgilovchi omillar va ilmiy bashorat qilish usullari.
5. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi davri va umumbashariy muammolar.
6. Jahon XXI asrda: kelajak va inson taqdiri.
7. O'zbekistonda tabiat, jamiyat va insonni asrash yo'llari.

**6- seminar. Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikrlashning ahamiyati. (2 soat)**

1. Tafakkur - mantiq ilmining o'rganish ob'ekti.
2. Mantiqning asosiy qonunlari.
3. Tushunchaning mohiyati va uning ifodalanishi.

**7- seminar. Etika fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy axloq. (2 soat)**

1. "Etika" fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi.
2. Etikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi.
3. Etika fanining ahamiyati va vazifalari

**8- seminar. Pedagog faoliyatida estetika. (2 soat)**

1. Estetika fanining predmeti, tadqiqot doirasi va maqsadi.
2. Estetikaning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabati.
3. Estetikaning asosiy kategoriyalari.

**9- seminar. Korrupsiya va uning asosiy ko'rinishlari. (2 soat)**

1. Korrupsiya va uning kelib chiqish ildizi
2. Korrupsiya – nihoyatda ijtimoiy-siyosiy vayronkor kuch
3. Korrupsiyaning asosiy sabablari

**10- seminar. Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari. (2 soat)**

1. korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa sifatida
2. Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish
3. Har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarni tashkil etish

**11- seminar. Dinshunoslik faniga kirish. Dinning mohiyati, tuzilishi, funktsiyalari. (2 soat)**

1. Dinshunoslik fanini o'qitishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad.
2. Bu sohada erishilgan yutuqlar.

3. Dinning jamiyatdagi funksiyalari.
4. Din ijtimoiy hodisa sifatida.
5. Dinning paydo bo'lishi masalasi.
6. Dinlar tasnifi.

#### **12- seminar. Urug'-qabila va milliy dinlar. (2 soat)**

1. Yahudiylikning vujudga kelishi va ta'limoti;
2. Yahudiylikdagi oqimlar;
3. Muqaddas manbalari;
4. Marosim va bayramlari;
5. Yahudiylar O'rta Osiyoda;
6. Veda va veda dinlari;
  - a. Vedalar;
  - b. Braxmanlik;
  - c. Hinduiylik.
7. Konfusiylilik;
8. Daosizm.

#### **13- seminar. Jahon dinlari: buddizm va xristianlik va ulardagi ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar. (2 soat)**

1. Buddaviylik asoschisining shaxsi;
2. Buddaviylik ta'limoti;
3. Meditatsiya;
4. Buddaviylikning tarqalishi;
5. Buddaviylik manbalari
6. Xristianlikning vujudga kelishi;
7. Pravoslav oqimi;
8. Katolik oqimi;
9. Protestant oqimi;
10. Xristianlikdning boshqa oqimlari;
11. Xristianlik tarixida apostol Pavelning tutgan o'rni;
12. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida xristian dini;
13. "Bibliya" xristianlikning muqaddas kitobi.

#### **14- seminar. Islom dini va ta'limoti. (2 soat)**

1. Islom ta'limoti va ruknlari.
2. Johiliya davrida Arabiston yarim orolidagi ijtimoiy va diniy holat.
3. Muhammad alayhis salomning vahygacha bo'lgan hayoti.
4. Payg'ambarlik faoliyatining boshlanishi.
5. Islom dini Makka davrida.
6. Madina Islom davlati.
7. Xulafu ar-Roshidin davrida islom.
8. Vahyning nozil bo'la boshlashi.
9. Makka davrida nozil bo'lgan suralar.
10. Madina davrida nozil bo'lgan suralar.
11. Qur'onning jamlanishi.
12. Tafsirlar
13. Hadis - Payg'ambar haqidagi rivoyatlar.
14. Hadislarning jamlanishi va mashhur to'plamlari.
15. Imom al-Buxoriy - hadis ilmining sultoni.

**15- seminar. O‘zbekistonda vijdon erkinligi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O‘zbekiston tajribasi. (2 soat)**

1. Kibermakon tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.
2. Axborot urushi va uning mazmuni
3. Din niqobidagi mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo‘lish shakllari.
4. Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarb masalalari.

**IV. Talabalar mustaqil ishining mazmuni va hajmi (60 soat).**

***Mustaqil ta‘lim shakllari***

Talabalarning mustaqil ta‘limi har bir modul bo‘yicha o‘qituvchi rahbarligida (O‘RTMI) va mustaqil tarzda (TMI) quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi.

***O‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi (O‘RTMI)***

Ushbu fanda me‘yorlashtirilmaydigan O‘RTMI shakllari rejalashtirilgan bo‘lib, ular har bir amaliy mashg‘ulot bo‘yicha yakuniy hisobot shaklida qabul qilinadi. O‘RTMI amaliy mashg‘ulotda yoki undan keyin amalga oshirilishi mumkin. Har bir amaliy mashg‘ulotdan so‘ng masofaviy ta‘lim platformasida O‘RTMI uchun o‘qituvchining maslahat darslari tashkil etiladi.

Ushbu fanda masofaviy ta‘lim platformasida quyidagi O‘RTMI shakllarini qo‘llash nazarda tutilgan:

- 1) Q/A (savollarga cheklangan hajmda javob yozish).
- 2) Chart (jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish).
- 3) Link (Internet-havolaga annotatsiya yozish).
- 4) Review (berilgan manbaga sharh yozish).
- 5) SWOT (muammoni SWOT-tahlil qilish).
- 6) Google Apps (Google ilovalarda guruh bo‘lib hujjat, jadval, prezentatsiya va testlar tayyorlash).
- 7) Interview (boshqalarning muammoga nisbatan fikrini o‘rganish).
- 8) LabReport (laboratoriya ishlari bo‘yicha hisobot tayyorlash)

***O‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlari hajmi***

<b>T.r.</b>	<b>Shakli</b>	<b>Seminar mashg‘ulot mavzulari bo‘yicha O‘RTMI mazmuni</b>	<b>soat</b>
1.	Q/A	“Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo‘lg‘usi pedagoglarda o‘qitilishining nazariy-amaliy ahamiyati” mavzusi bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so‘z hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to‘liqligi va so‘zlar soni e‘tiborga olinadi.	2
2.	Link	Talaba “Falsafani taraqqiyot bosqichlari” mavzusi bo‘yicha berilgan variantlardagi havolalarni ochib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaning to‘g‘ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi.	2
3.	Chart	“Ontologiya, gnotseologiya va ong falsafasi” mavzusi bo‘yicha variantlardagi jadvallarni 200 gacha so‘z ishlatib izohlash talab etiladi. Javobni baholashda so‘zlar soni, atamalardan foydalanish, gapning tuzilishi, bog‘lovchi so‘z va iboralardan foydalanish, taqqoslashlar, o‘zgarish dinamikasi va izohning	2

		to'g'riligi hamda to'liqligi inobatga olinadi.	
4.	Link	Talaba "Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari" mavzusi bo'yicha berilgan variantlardagi havolalarni ochib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaning to'g'ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi.	2
5.	Q/A	"Jamiyat falsafasi. Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari" mavzusi bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so'z hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to'liqligi va so'zlar soni e'tiborga olinadi.	2
6.	Interview	Talaba "Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikrlashning ahamiyati" mavzusi bo'yicha o'zgalarning shu muammoga nisbatan fikrlarini o'rganadi va audio, video yozuvlar shaklida taqdim etadi. Talabaning ishini baholashda uning vaqt reglamentiga rioya qilganligi, suhbatdoshini to'g'ri tanlashi, savollarni suhbatdoshining javobidan kelib chiqib berishi va uni yo'naltirishi, original javob olishi, tashqi ko'rinish va fon, mulozamat elementlari inobatga olinadi.	2
7.	Q/A	"Etika fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy axloq" mavzusi bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so'z hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to'liqligi va so'zlar soni e'tiborga olinadi.	2
8.	Review	"Pedagog faoliyatida estetika" mavzusi bo'yicha berilgan manba belgilangan shaklda va hajmda sharhlanadi.	2
9.	Review	"Korrupsiya va uning asosiy ko'rinishlari" mavzusi bo'yicha berilgan manba belgilangan shaklda va hajmda sharhlanadi.	2
10.	Link	Talaba "Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari" mavzusi bo'yicha berilgan variantlardagi havolalarni ochib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaning to'g'ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi.	2
11.	SWOT	Talaba "Dinshunoslik faniga kirish. Dinning mohiyati, tuzilishi, funksiyalari" mavzusi bo'yicha SWOT-tahlilni amalga oshiradi.	2
12.	Google Apps	Talabalar "Urug'-qabila va milliy dinlar" mavzusi bo'yicha hamkorlikda Google- prezentatsiya tayyorlashadi.	2
13.	Q/A	"Jahon dinlari: buddizm va xristianlik va ulardagi ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar" mavzusi bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so'z hajmida javob	2

		yoziqiladi. Javobni baholashda javobning to'liqligi va so'zlar soni e'tiborga olinadi.	
14.	Link	Talaba "Islom dini va ta'limoti" mavzusi bo'yicha berilgan variantlardagi havolalarni ochib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabanning to'g'ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi.	2
15.	Chart	"O'zbekistonda vijdon erkinligi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston tajribasi" mavzusi bo'yicha variantlardagi jadvallarni 200 gacha so'z ishlatib izohlash talab etiladi. Javobni baholashda so'zlar soni, atamalardan foydalanish, gapning tuzilishi, bog'lovchi so'z va iboralardan foydalanish, taqqoslashlar, o'zgarish dinamikasi va izohning to'g'riligi hamda to'liqligi inobatga olinadi.	2
<b>Jami</b>			<b>30</b>

### **Talabanning mustaqil ishlari (TMI)**

Ushbu mustaqil ish shakllariga o'qituvchi tomonidan hech qanday ko'rsatma berilmaydi va baholanmaydi, balki talabanning o'zi qiziqishlaridan kelib chiqib ularni amalga oshiradi. Fanni o'qitishda quyidagi TMI shakllari qo'llaniladi.

#### ***Talabanning mustaqil ish mashg'ulotlari hajmi***

<b>T.r.</b>	<b>TMI shakllari va mazmuni</b>	<b>soat</b>
1.	<b>Research.</b> Talabalar Internetdan va boshqa manbalardan mustaqil ravishda ma'lumot izlashadi va tarqatma materiallarni o'rganishadi. Har bir ma'ruza bo'yicha kamida 2 soat shug'ullanish maqsadga muvofiq.	10
2.	<b>Forum.</b> Talabalar fan mashg'ulotlari bo'yicha topshiriqlarni bajarish mobaynida masofaviy ta'lim platformasida o'zaro muloqot qilishadi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy ta'lim platformasida qayd qilib boriladi.	5
3.	<b>FAQ</b> (ko'p beriladigan savollar forumi). Talaba o'z muammosi bo'yicha maslahat olish uchun masofaviy ta'lim platformasida maslahat tizimiga (glossariyga) yoki o'qituvchiga murojaat qiladi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy ta'lim platformasida qayd qilib boriladi.	5
4.	<b>Test.</b> Talaba har bir modul yakunida o'z bilimlarini mustahkamlash uchun masofaviy ta'lim platformasidagi o'rgatuvchi testlarni ishlaydi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy ta'lim platformasida qayd qilib boriladi.	10
<b>Jami</b>		<b>60</b>

### **Talabalar bilimni baholash**

**Kirish nazorati.** Bu nazorat turi modulga kirish maqsadida anketa-so'rovnomasi shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarga fanning kelajakdagi talabalar bilan faoliyatida tutgan o'rni, ahamiyati, fan mazmuni, fanni o'qitish usullariga oid so'rovlar o'tkaziladi, talabalarning fanni o'rganish uchun zarur bo'lgan dastlabki bilimlari aniqlanadi, taklif va tavsiyalar olinadi. Ushbu so'rovlar natijasi chuqur o'rganilib fanni o'qitishni tashkil qilish jarayonida zarur o'zgartirishlar kiritiladi.

**Oraliq nazoratlar.** Oraliq nazoratlar semestr davomida 2 marta o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi va 1-2 va 3-5 modullar bo'yicha talabalarning bajargan ishlari portfolio shaklida jamlanib tahlil qilib baholanadi.

Jami 15 ta amaliyning (Q/A, Chart, Link, Review, SWOT, Google Apps, Interview) har biri bo'yicha o'zlashtirish natijalari 6 ballik tizimda baholanadi va jami 90 ball to'planadi, talabaning darslardagi faolligi va ishtirokiga umumiy 10 ball qo'yiladi. Umumiy hisobda oraliq nazorat topshiriqlari 100 ballik tizimda baholanadi.

Talabaning oraliq nazorat bo'yicha o'zlashtirgan ballari quyidagi jadval asosida kredit ballariga va harfli tizimga o'giriladi.

Harfli tizimdagi baho	Ballarning raqamli ekvivalenti	Foiz ko'rsatkichi	An'anaviy usuldagi baho
A	4,0	95-100	A'lo
A-	3,67	90-94	
VQ	3,33	85-89	Yaxshi
V	3,0	80-84	
V-	2,67	75-79	
SQ	2,33	70-74	
S	2,0	65-69	Qoniqarli
S-	1,67	60-64	
DQ	1,33	55-59	Qoniqarsiz
D	1,0	50-54	
F	0	0-49	

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'iga ilova qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilishda baholash tizimi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq oraliq nazoratda fan bo'yicha A-S darajasiga erishgan talabalar yakuniy nazoratga qo'yiladi.

#### ***Yakuniy nazorat (chiqish nazorati).***

Yakuniy nazorat taqdimot (yoki hamkorlikdagi taqdimot) shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda baholanadi va yuqoridagi jadval asosida uning baholash ko'rsatkichi aniqlanadi. Yakuniy nazorat bahosi fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini belgilaydi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa. -Toshkent: TMU, 2019
2. Jonathon A.C. Brown. hadith. -Ehglan, 2000
3. Samuel Guttenpion. Philosophy selected texts with a method for beginners.
4. Гилязиев З.З. Углубленное изучение истории и культуры ислама. -Казань: Изд-во ДУМ РТ. 2009.
5. Жалилов Б. Диншунослик. -Тошкент: 2019.
6. Зиновьев А. Логика. Москва, МГУ, 2006.
7. Иззетова Э., Пулатова Д. Философия. -Ташкент: Шарқшунослик, 2012. 340-б
8. Под редакцией. Пржиленского В.И. Философия для бакалавров. Ростов-на Дону: Феникс, 2007
9. Чумаков А.Н. Философия. учебник. 2-издание.-Москва: ИНФРА-М, 2018



10. Шермухамедова Н.А. Фалсафа -Тошкент: Ношир, 2012.
11. Шермухамедова Н.А. Фалсафа. 2-нашр. Тошкент: Ношир, 2020. 667 бет
12. Шермухамедова Н.А. Диний фанатизм феномени./Инсон фалсафаси. Тошкент: Ношир, 2016 314-499 бетлар.
13. Olimova M., Asatuloev A. Falsafa.-Guliston.,2021.

#### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild, Toshkent, "O‘zbekiston", 2017 yil.
2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O‘zbekiston", 2017 yil.
3. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. "Xalq so‘zi" gazetasi, 2017 yil, 23-dekabr, 2-bet.
4. Mirziyoev SH.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. "Xalq so‘zi" gazetasi, 2017 yil, 8-dekabr, 1-3 betlar.
5. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi farmoni. Toshkent, "Adolat", 2018 yil.
6. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., O‘zbekiston, 2017 yil.
7. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., O‘zbekiston, 2017 yil.
8. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-23 jildlar. -T.: "O‘zbekiston", 1996-2015 y.y.
9. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. –T.: "Ma‘naviyat", 2008.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. –T.: "O‘zbekiston", 2010.
11. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: "O‘zbekiston", 2011.
12. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizasiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. T.: O‘zbekiston, 2013.
13. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. - 488 б.
14. Jaspers. The origin and goal of history. New Haven and London. Yale University Press. 1965. P - 77. (P - 19)
15. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. P - 341.
16. А.Азами. Введение в Хадисоведение. Казань: 2011
17. А.Фитрат. Танланган асарлар -Т.: Маънавият, 2010 -301
18. Абу Хомид Ғаззолий Кимёи саодат/ Икки дунё саодатига элтувчи билим. - Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази, 2019
19. Аристотель Сочинения. В-4-т. -Москва: Мысль, 1976
20. Ильин И.В. Урсул А.Д. Образование, общество, природа.-Москва: изд-во МГУ, 2016
21. Кармин А.С., Новикова Е.С. Культурология. Киев, Харьков-Минск. 2003

22. Курбонова Л. Фалсафий антропология ва элитология уйғунлигининг ўзига хос хусусиятлари. Фалс.фан. доктори. Дисс. -Тошкент: ЎЗМУ, 2019
23. Лосев А.Ф. Бытие-Имя-Космос. -Москва: Мысль, 1993
24. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. Тошкент: Ўзбекистон, 2018
25. Платон Сочинения в 4т. -Москва: Мысль, 1996
26. Рудугин А.А. Эстетика. Москва: Изд-во Центр, 2003
27. Румий Ж. Етти мажлис. -Тошкент: Янги аср авлоди., 2019
28. Румий Ж. Маснавий.40 ривоятга шарҳ. -Тошкент: Наврўз, 2019
29. Сайид Муҳаммад Хотамий. Ислом тафаккури тарихи. -Тошкент: Минхож, 2003
30. Саифназаров И., Саифназарова Ф. Ёшлар ва оила-Ватан таянчи.-Тошкент: “Та’лим nashriyoti” МЧЖ, 2018. -132 б.
31. Темур тузуклари. Китобни нашрга тайёрловчи. Жумабой Рахимов.Тошкент: Шодлик нашриёти.2018
32. Ўзбекистон фалсафаси тарихи. Аликулов Х. масъул муҳаррир, муаллифлар жамоаси. Тошкент: Ношир, 2013
33. Худойберганов Р. Ўлим ва бархаётликнинг фалсафий методологик таҳлили. Тошкент: Ўзбекистон, 2017
34. Шарипов М. Мантиқ. -Тошкент: 2003
35. Шермухамедова Н.А. Борлиқ ва ривожланиш фалсафаси. -Тошкент: Ношир, 2013
36. Шермухамедова Н.А. Гносеология - билиш назарияси. -Тошкент: “Ношир”, 2011.
37. Шермухамедова Н.А. Инсон фалсафаси. -Тошкент, Ношир, 2016
38. Яссавий Хожа Ахмад Девони хикмат. -Тошкент: Наврўз, 2018

#### **Internet saytlari**

39. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
40. [www.philosophy.ru](http://www.philosophy.ru).
41. [www.faylasuf.uz](http://www.faylasuf.uz)
42. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
43. [www.muslim.uz](http://www.muslim.uz)
44. [www.religions.uz](http://www.religions.uz)

**Ishchi o‘quv dasturga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida**  
 \_\_\_\_\_ o‘quv yili uchun ishchi o‘quv dasturiga qo‘yidagi  
 o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda:

---



---



---



---



---



---



---



---

